

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BMT DAGI O‘RNI**Qudratov N.****Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi****Temirov A.****Tarix ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610566>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)dagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda O‘zbekistonning mustaqillikka erishgandan so‘ng BMTga a‘zo bo‘lish jarayoni, tashkilot bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari hamda xalqaro maydondagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz tomonidan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, terrorism va ekstremizmga qarshi kurashish, yadro qurollarini tarqatmaslik, Orol dengizi ekologik muammolarini hal etish borasida ilgari surilgan tashabbuslar tahlil etilgan. Maqolada O‘zbekistonning UNESCO, UNICEF, UNDP, WHO kabi BMTning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan hamkorligi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishni ta‘minlashdagi o‘rni ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning BMTdagi faol ishtiroki mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish va jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, BMT, xalqaro hamkorlik, tashqi siyosat, xalqaro xavfsizlik, Markaziy Osiyo, Orol dengizi, UNESCO, UNICEF, UNDP, inson huquqlari, barqaror rivojlanish, xalqaro tashabbuslar, global xavfsizlik.

ABSTRACT: This article examines the role and significance of the Republic of Uzbekistan within the framework of the United Nations (UN). It highlights Uzbekistan’s accession to the UN following its independence, the development of cooperation with UN specialized agencies, and the country’s participation in addressing pressing international issues. Particular attention is paid to Uzbekistan’s initiatives in ensuring international and regional security, combating terrorism and extremism, preventing the proliferation of nuclear weapons, and addressing environmental challenges related to the Aral Sea crisis. The article also discusses Uzbekistan’s cooperation with such UN bodies as UNESCO, UNICEF, UNDP, WHO, and others. Furthermore, it analyzes the importance of Uzbekistan’s membership in the UN for strengthening the country’s international standing, promoting democratic reforms, protecting human rights, preserving cultural heritage, and achieving sustainable socio-economic development.

Keywords: Republic of Uzbekistan, United Nations, UN, international cooperation, foreign policy, international security, Central Asia, Aral Sea, UNESCO, UNICEF, UNDP, human rights, sustainable development, international initiatives, global security.

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируется место и роль Республики Узбекистан в деятельности Организации Объединённых Наций (ООН). Освещаются процесс вступления Узбекистана в ООН после обретения независимости, развитие сотрудничества с её специализированными учреждениями и участие страны в решении актуальных международных проблем. Особое внимание уделено инициативам Узбекистана в области обеспечения международной и региональной безопасности, борьбы с терроризмом и экстремизмом, предотвращения распространения ядерного оружия, а также решению экологических проблем, связанных с Аральским

морем. Рассматривается сотрудничество Узбекистана с такими структурами ООН, как ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, ПРООН, ВОЗ и другими. В статье также раскрывается значение членства Узбекистана в ООН для укрепления международного авторитета страны, развития демократических реформ, защиты прав человека, сохранения культурного наследия и обеспечения устойчивого социально-экономического развития.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Организация Объединённых Наций, ООН, международное сотрудничество, внешняя политика, международная безопасность, Центральная Азия, Аральское море, ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, ПРООН, права человека, устойчивое развитие, международные инициативы, глобальная безопасность.

Birlashgan millatlar tashkiloti dunyoda tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning bir-bir bilan hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir. Ushbu tashkilot 1945-yil 24-oktabrda tuzilgan. BMTni tuzilishi haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, nizomi esa San-Fransisko konferensiyasida 1945-yil 24-oktabrda qabul qilindi¹.

BMT nizomiga birinchilardan bo'lib 51 davlat imzo chekdilar, 2000-yilda esa ular soni 189 tani tashkil qiladi. BMT bugungi kunda tinchlikni saqlash uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tashkilot hisoblanadi. BMTning doimiy ish o'rne (shtab kvartirasi) New York joylashgan. BMTning nizomida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun, xalqlarning teng huquqli bo'lishi hamda o'z taqdirini o'zlari belgilashini, millatlar va elatlar o'rtasida hamdo'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muammolarni hal etishda millatlar o'rtasida do'stlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutgan holda, shu umumiy maqsadlarga erishishda xalqlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan butun bir markaz hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng 1992-yil 21-martda BMTga a'zo bo'ldi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosida Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i baland ko'tarildi. BMTning Toshkentdagi ishonchli vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi o'z ish faoliyatini boshladi. O'zbekiston Respublikasi BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi hisoblangan tashkilot YUNESKOga ham a'zo bo'ldi².

Dunyo hamjamiyatida O'zbekiston o'z so'zi va obro'siga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 1993-yil sentabrda 48-sessiyasida BMT tashkil etilganining ellik yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan sessiyada (1995-yil oktabr), BMT Bosh Assambleyasining „Mingyillik sammiti (2000-yil sentabr) da so'zlagan nutqlari dunyo mamlakatlari jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, ushbu dunyo tashkilotining XX asr so'nggidagi eng yirik yig'ilishda Mustaqil O'zbekiston Respublikasi rahbari hozirgi kunda global masalalardan bir bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish, mintaqaning xavfsizlik, xususan Markaziy Osiyo hududida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, dunyo xavfsizligi tizimini tubdan rivojlantirish, BMT faoliyati va bosh shtab tizimini isloh qilishga xizmat qiladigan takliflar bilan chiqdi. O'zbekiston Respublikasi BMT

¹ Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. T.: Akademnashr, 2019. 12-bet.

² Каримов И. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат. – Т.: Ўзбекистон, 2008. 431-бет.

tashkilotining to'laqonli teng imkoniyatli a'zosi sifatida bu eng nufuzli BMTning maqsad va vazifalariga rioya qilmoqda³.

Bugun yurtimizda BMTning o'ndan ortiq dasturi, agentligi va jamg'armalari xususan, Ta'lim, fan va madaniyat, Taraqqiyot dasturi masalalari bo'yicha tashkiloti YUNESCO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti WHO, Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi Aholi qatlamlari fondi YUNFPA, Xalqaro bolalar tashkiloti YUNISEF, YUNODC, OIV/OITS bo'yicha qo'shma dasturi YUNAIDS, Axborot va ijtimoiy aloqalar bo'yicha bo'limi, Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy Komissar boshqarmasi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti UNIDO, Ko'ngillilar dasturi UNV faoliyat olib bormoqda. Nyu-York va Jenevadagi BMT qarorgohlarida O'zbekistonning doimiy vakolatxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yangi suveren, mustaqil davlat sifatida xalqaro Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 1992-yil 2-martda a'zo bo'ldi⁴.

O'zbekiston Respublikasi bu tarixiy voqeadan so'ng o'tgan davr mobaynida BMT va uning turli sohalardagi ixtisoslashgan muassasalari bilan munosib hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, xavfsizlikka hamda zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi turish, Afg'onistonda tinchlikni o'rnatish va mamlakat iqtisodiyotini qayta tubdan isloh qilish, bugungi kunning asosiy muammolaridan bir bo'lgan ommaviy qirg'in qurollarini ishlatmaslik, Orol dengizi muammolarini hal qilish, jumladan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini imkon qadar yumshatish, iqtisodiy-ijtimoiy sohasini yo'lga qo'yish, inson haq-huquqlarini munosib himoya qilishni va turizm sohasini rivojlantirish kabi ustuvor muammo va masalalar yo'lida hamkorlikni yo'lga qo'ygan xisoblanadi⁵.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti hisoblangan Toshkentda 1993-yildan boshlab BMT vakolatxonasi faoliyat yuritib kelmoqda. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (MXT), jumladan, Ko'ngillilar dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasida “BMT oilasi”ni tashkil qiladi. Shuningdek, Jahon banki BMTning mustaqil ixtisoslashgan organi sifatida tuzilmaning mamlakatimizdagi ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda⁶.

Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish doirasida so'nggi to'rt yilda O'zbekiston bilan BMT o'rtasida yuqori darajadagi siyosiy hamkorlik sezilarli faollashdi. Buni BMT Bosh Assambleya va ixtisoslashgan tuzilmalaridagi O'zbekiston ishtirokining jonlanganidan ham bilish mumkin. BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish 2017-yil iyun oyida davlatimizga mehmon bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. O'zbekiston Respublikasining rahbari BMTning Bosh kotibi bilan uchrashuvi bo'lib o'tadi, shuningdek, 2017-yil sentyabr oyida AQShning Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi va Xitoy poytaxti Pekinda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" 2-xalqaro forumi yuzasidan Prezidentimizning BMT Bosh kotibi bilan keng imkoniyatlarni ochib beruvchi uchrashuv bo'lib o'tadi. Bu uchrashuv natijasida O'zbekiston va BMTning do'stona hamkorligini rivojlantirish bo'yicha 3 ta amaliy ishlar rejasi qabul qilindi va amalga oshirib kelinmoqda. BMTning Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida qatnashganligi davlatimizning xalqaro tashkilot va dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi hamda keng imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Ushbu sammit tufayli O'zbekiston BMTning barcha sohalardagi jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanganligini alohida takidlash joizdir.

³ Левитин Л. Ислом Каримов – Янги Ўзбекистон президенти. – Т.: Шарк, 2008. 126-бет.

⁴ Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Т.: Akademyashr, 2019. 62-бет.

⁵ Каримов И. Янги уйни курмай туриб эскисини бузманг. – Т.: Ўзбекистон, 2008. 121-бет.

⁶ Левитин Л. Ислом Каримов – Янги Ўзбекистон президенти. – Т.: Шарк, 2008. 256-бет.

O'zbekistonning bu xalqaro tashkilotga qo'shilishi dunyo davlatlarining mamlakatimizga qiziqishini oshirmoqda⁷.

So'nggi yillarda O'zbekistonning taklifi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida 3 rezolyutsiya ishlab chiqilib qabul qilindi. Bu kabi hamorlik aloqalari O'zbekistonning xalqaro miqyosidagi yutug'i hisoblanadi. Davlatimiz hozirgi vaqtda xar tamonlama aloqalarni yo'lga qo'ygan hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. BMT ga a'zo mamlakatlar bilan birgalikda Bosh Assambleyaning eng muhim rezolyutsiyalarida biri bo'lgan Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini hayotga tatbiq qilinishi ustida ish olib borilmoqda⁸.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi taxlikali vaziyatni keltirib chiqaruvchi qurollanish poygasi va ularni tarqatmaslik hamda urush xavfini keltirib chiqaruvchi vositalarni oldini olish dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi dunyoda yadro qurollarini tarqatish hamda foydalanmaslik uchun aniq bir tartib va intzom bilan shartnomalar tuzilishi zarurligini BMT davlatlari bilan uchrashuvda bot-bot aytib o'tilmoqda va BMT minbarlarida yangramoqda. Ushbu taklif yuzasidan 2006-yil sentyabr oyida Semipalatinsk shahrida shartnoma imzolandi. 2009-yil mart oyida esa ushbu shartnoma Markaziy Osiyo mintaqasining 5 davlati tomonidan ratifikatsiya qilingach, kuchga kiradi⁹. BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida 2004-yil mayida dunyo hamjamiyati uchun tarixiy voqea sodir bo'ldi – BMT tuzilganidan beri ilk bor yadro quroliga ega 5 ta davlat – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya vakillari bir vaqtning o'zida va bir ovozdan muhim xalqaro hujjat – Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Xavfsizlik kafolatlari to'g'risidagi protokolni imzoladi. Shu tariqa Markaziy Osiyo davlatlarida yadro qurolidan holi zona deb e'lon qilindi va yadro qurolisiz hududga aylandi¹⁰. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, xalqaro maydonda o'zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirish va jahon hamjamiyati bilan teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgiladi. Shu jihatdan, mamlakatning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi mustaqil davlat sifatida xalqaro tan olinishi va suverenitetining muhim ifodasi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'laqonli a'zosiga aylandi. Bu voqea mamlakat tarixida muhim siyosiy-huquqiy ahamiyat kasb etdi. Chunki BMTga a'zolik O'zbekistonning xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinganini, uning davlat mustaqilligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilganini anglatar edi. Mazkur a'zolik orqali O'zbekiston dunyo davlatlari bilan tenglik, o'zaro manfaatdorlik va hamkorlik tamoyillari asosida munosabatlar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. BMTga a'zo bo'lish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda muhim omil bo'ldi. Jumladan, mamlakat xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik muammolarni hal etish va iqtisodiy taraqqiyot masalalarida faol ishtirok eta boshladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasida ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro miqyosda e'tibor qozondi. O'zbekiston BMT minbaridan turib xalqaro hamjamiyat e'tiborini mintaqadagi dolzarb muammolarga qaratdi. Xususan, Orol dengizi fojeasi, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari bo'yicha muhim takliflar ilgari surildi. Orolbo'yi ekologik inqirozini global muammo sifatida tan oldirish yo'lidagi sa'y-harakatlar O'zbekiston diplomatiyasining muhim

⁷ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 108-бет.

⁸ Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели. – Т.: Ўқитувчи, 2015. 165-бет.

⁹ Каримов И. Янги уйни курмай туриб эскисини бузманг. – Т.: Ўзбекистон 2008. 211-бет.

¹⁰ Xalq so'zi gazetasi. // 1991. 2016. 07. 09. 28-son. 31-бет.

yutuqlaridan biri bo'ldi. Shuningdek, BMT bilan hamkorlik mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga ham xizmat qildi. O'zbekiston BMTning turli tuzilmalari, jumladan, UNESCO, UNICEF, UNDP kabi tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Bu hamkorlik ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ekologiya va ijtimoiy himoya sohalaridagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

BMTga a'zolik O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirdi va mamlakatning global siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirdi. Natijada O'zbekiston ko'plab xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, mamlakatning tinchliksevar tashqi siyosati va xalqaro tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholandi.

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi mamlakat tarixidagi eng muhim siyosiy voqealardan biri hisoblanadi. Ushbu voqea davlat mustaqilligining xalqaro miqyosda mustahkamlanishiga, tashqi siyosiy faoliyatning rivojlanishiga hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzining ortishiga xizmat qildi. Bugungi kunda ham O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlik izchil davom etib, global va mintaqaviy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi mamlakat tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratdi. Chunki yangi mustaqil davlat uchun xalqaro maydonda o'z o'rnini topish, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biri edi. BMTga a'zolik aynan shu maqsadlarni amalga oshirishda muhim siyosiy qadam bo'ldi. O'zbekistonning BMTga kirishi mamlakatning tashqi siyosiy strategiyasini mustahkamladi. Davlat xalqaro munosabatlarda ochiqlik, tinchlikparvarlik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga asoslangan siyosat yurita boshladi. Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro huquq me'yorlariga amal qiluvchi davlat sifatida shakllandi. Bu esa mamlakatning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni kengaytirishiga xizmat qildi. BMT doirasidagi faoliyat O'zbekistonning xalqaro tashabbuslarini ilgari surish imkonini yaratdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rin egalladi. Mamlakat tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy hamkorlik g'oyalari xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston rahbariyati tomonidan ilgari surilgan “Markaziy Osiyo — umumiy uyimiz” tamoyili qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qildi. O'zbekistonning BMTdagi faoliyati davomida ekologik xavfsizlik masalalari ham muhim yo'nalishga aylandi. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz xalqaro miqyosdagi muammo sifatida ko'tarildi. O'zbekiston tashabbusi bilan Orolbo'yi hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish masalasi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bu tashabbus mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etish va aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston BMT doirasida terrorizm, diniy ekstremizm va noqonuniy narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash masalalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, XXI asr boshlarida xalqaro terrorizm xavfining kuchayishi davlatlarni o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga undadi. O'zbekiston bu borada xalqaro xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi hamda mintaqaviy xavfsizlikni saqlashga o'z hissasini qo'shdi. BMT bilan hamkorlikning yana bir muhim jihati inson huquqlari va ijtimoiy himoya sohalaridagi islohotlar bilan bog'liqdir.

Mamlakatning UNESCO bilan hamkorligi natijasida o'zbek xalqining boy madaniy merosi xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi O'zbekistonning tarixiy va madaniy boyliklarini dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa nafaqat madaniy sohada, balki turizm va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi iqtisodiy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro moliyaviy va texnik yordam dasturlari orqali qator ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar amalga oshirildi. Xususan, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va ekologiya sohalarida amalga oshirilgan dasturlar aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlab, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda ham O'zbekiston BMT bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirib, global tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida faol ishtirok etayotgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 524 бет.
2. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 352 бет.
3. Каримов И. А. Жамиятимиз мафқураси халқни-халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. –Тошкент: Ўзбекистон. 1998. 247 бет.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият-энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 423 бет.
5. Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели. – Т.: Ўқитувчи, 2015. 213 бет.
6. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Akadernashr, 2019. 570 bet.
7. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – T.: Sharq, 2000. 540 bet.
8. Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2000. 220 bet.
9. Bo'riyev O. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning tarixiy merosi. – T.: O'zbekiston, 2010. 321 bet.
10. Холбоев С. Миллий мустақиллик ва тараккиетнинг узбек модели. – Т.: Укитувчи, 2015. 213 бет.
11. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-12- jildlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2006.
12. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. – T.: Akadernashr, 2018. 432 bet.